**Шароф Рашидов туман ХТБга қарашли мактабларни иссиқлик қозонларини ва дудбурунларинип тозалаш ишлари бўйича**

**ЙИҒИЛИШ БАЁННОМАСИ № 16**

**2022 йил 29 сентябр** **Ш.Рашидов т.**

Биз қуйида имзо чекиб тасдиқловчилар комиссия раиси Шароф Рашидов туман халк таълим бўлимининг раҳбари Д.Носиров, комиссия котиби бўлим бош ҳисобчиси С.Пардаев, аъзолари бўлим ходимлари Ш.Назиров, Ш.Тагатов, О.Рахмонкулов, Д.Яхшиев Шароф Рашидов туман ХТБга қарашли мактабларни иссиқлик қозонларини ва дудбурунларинип тозалаш ишлари бўйича 26 сентябр 2022 йил 22110012152400-сонли ЛОТ билан 64 068 000(Олмиш тўрт миллион олтмиш саккиз минг) сўмлик ХТБга қарашли мактабларни иссиқлик қозонларини ва дудбурунларинип тозалаш ишлари бўйича тендер танловига қуйилган. 2022 йил 26 сентябр куни 22110012152400-сонли ЛОТ билан танловда иштирок этган корхоналар ичида ЕНГИНГА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТИ 64 068 000 (Олмиш тўрт миллион олтмиш саккиз минг) сўмлик ХТБга қарашли мактабларни иссиқлик қозонларини ва дудбурунларинип тозалаш ишлари бўйича танлов ғолиби бўлган.

Бажариладиган ишларига 2022 йил 26 сентябр куни танловда ғолиб бўлган ЕНГИНГА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТИ га дастурда шаклланган 152400-сонли баённомасига кўра ЎРҚ 684-нинг 7-8 бандига мувофиқ баённома тузилган 2 (икки) иш куни муҳокамада турди ва хеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли ушбу ЕНГИНГА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТИ билан 2022 йил 28**сентябр** даги 445-3-46-ХТ/2022-сонли хизмат кўрсатиш шартномаси тузишга келишилди.

**Комиссия раиси:** **Д.Носиров**

**комиссия котиби:** **С.Пардаев**

**комиссия аъзолари:** **Ш.Назиров**

**Ш.Тангатов**

**О.Рахмонкулов**

**Д.Яхшиев**

Scanned with CamScanner

# XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

2022 й. «28» 9 445-3-46-XT/2022- сон ______________ш.

O'zbekiston Respublikasi Yong'inga Qarshi Kurashish jamiyati Jizzax viloyati Sh.Rashidov tuman hududiy bo'linmasi keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi " nizom asosida ish olib boruvchi nomidan X.Utamurodov bir tomondan va Sh.Rashidov tuman Xalq ta'limi bo'limi keyingi o'rinlarda "Buyirtmachi" nizomi asosida ish olib boruvchi nomidan D.Nosirov orqali ikki tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

## 1 . Shartnoma predmeti

1.1 "Bajaruvchi" Tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli maktablarni 2022-2023-o'quv yili kuz va qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida xalq ta'limiga bo'limiga qarashli maktablar issiqlik tizimlarini tozalash va issiqlik qozonlarini va dudburunlarini tozalash va texnik ko'rikdan o'tqazish ishlarini olib boradi

1.2 Buyirtmachi esa bajarilgan ishlarni tekshirib chiqish va qabul qilish nazoratini o'rnatadi.

## 2 . Shartnomaning narxi (qiymati)

2.1 Shartnomaning 1.1 bandida ko'rsatilgan ishlarning umumiy bahosi 64 068 000 ( Oltmish to'rt million oltmish sakkiz ming )so'mni tashkil qiladi.

## 3 . To'lov shartlari

3.1 Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi .

## 4 . Majburiyatlarni bajarish muddati.

4.1 Buyirtmachi tomanidan bajarilgan ishlar bo'yicha oldindan 30% to'lovni amalga oshiriladi.Qolgan 70 % to'lovni bajarilishi kerak bo'lgan ishlar to'liq bajarilganidan keyin to'lab beriladi.

4.2 Buyirtmachi Bajaruvchining xisob raqamiga pul o'tkazmasini amalga oshirganidan so'ng shartnomadagi muddat ichida ishni bajarib berishi shart.

4.3 Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkla taraflar tomonidan yozma ravishda tuzilib imzo quyganidan keyin g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olingandan so'ng yuridik kuchga ega bo'lib joriy yilning (2022-yil ) 31-dekabr sanasigacha amal qiladi.

## 5 . Taraflarning majburiyatlari

### 5.1 Bajaruvchining majburiyatlari

5.1.1 Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilingan holda Buyirtmachiga shartnomadagi ishlarni o'z vaqtida bajarib berish .

5.1.2 Tegishli darajada sifatsiz bajarilgan ishlar yuzasidan xabarnoma olgandan so'ng sifatsiz bajarilgan ishlarni 31 ish kuni ichida bajarib berish yoki bajarish imkoni bo'lmagan vaziyatda bajarilmagan ishlar bo'yicha uchbu shartnomaning 2.1 bandiga asosan bahosini kamaytirib berish.

### 5.2 Buyirtmachining majburiyatlari

5.2.1 Bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi asosida qabul qilish.

5.2.2 Tegishli darajada sifatli bajarilmagan ishlar aniqlanganidan keyin va u haqda dalolatnoma tuzib 3 kun ichida Bajaruvchini ogohlantirish.

5.2.3 Bajarilgan ishlar bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatida to'lash.

## 6 . Fors-major holatlari.

6.1 Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majbutiyatlar bo'yicha javobgar emas. (urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi fuqarolar tartibsizligi epidemiya embargo zilzila suv toshqini yong'in va boshqa tabiy ofatlar shular jumlasidan)



Scanned with CamScanner

6.2 Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.
6.3 Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 3oy uzluksiz davom etsa taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

## 7 . Nizolarni hal qilish tartibi.

7.1 Ushbu shartnomaga yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.
7.2 Nizolarning taraflarning muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda taraflar kelishmovchiligini bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirganlaridan sao'ng ularni ________________________________________
(taraflar tomonidan nizolarni hal tish uchun tanlangan sudning nomi va joyi ko'rsatilsin)

## 8 . Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish tartibi.

8.1 Shartnomaga taraflarning kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodekisiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normativlarga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

## 9 . Korrupsiyaga qarshi shartlashuv

9.1Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushinishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.
9.2 Istemolchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek unung mansabdor shaxslari direktori xodimlari agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning maanfatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlari normativ hujjatlarning Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va ta'lablariga qat'y rioya etish majburiyatini oladi.

## 10 . Boshqa shartlar

10.1 Xizmat ko'rsatiladigan tashkilotning joylashgan manziliga qarab kelishilgan narxda ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lanadi.
10.2 Ushbu shartnoma taraflarning har biri uchun haqiqiy bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

## 11 . Taraflarning manzillari va bank rekviztlari.

**Buyirtmachi**

**Jizzax viloyati Sharof Rashidov tuman Xalq ta'limi bo'limi**

**Manzil:Uchtepa daxasi mustaqillik k 44-uy**
**Tel: +998 72 342 10 55**
**X/p: 100022860082127092100075085**
**Bank nomi:Mikrokreditbank**
**MFO: 00135**
**STIR: 201 369 776**

**Tuman XTB mudiri:D.Nosirov**

**Ijrochi**

**O'zbekiston Respublikasi Yong'inga Qarshi Kurashish Jamiyati Jizzax v Sh.Rashidov tuman hududiy bo'linmasi**
**Manzil:Sh.Rashidov t mustaqillik k 3-uy.**
**Tel: ________________**
**X/p:2021 2000 3003 8228 9001**
**Bank nomi:Milliy bank jizzax v filiali**
**MFO:00121**
**STIR: 201 969 608**

**Raxbar:X.Utamurodov**

Scanned with CamScanner

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma loyihasi
2. Loyihaning nomi:

O'zbekiston Respublikasi Yong'inga Qarshi Kurashish jamiyati Jizzax viloyati Sharof.Rashidov tuman hududiy bo'linmasi (keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi") nizom asosida ish olib boruvchi nomidan X.Utamurodov bir tomondan va Sharof Rashidov tuman xalq ta'limi bo`limi ( keyingi o'rinlarda "Buyirtmachi") nizomi asosida ish olib boruvchi nomidan raxbari **Nosirov Durbek O'ralovich** o'rtasida 2022-2023-o'quv yili kuz va qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida xalq ta'limiga bo'limiga qarashli maktablar issiqlik tizimlarini tozalash va issiqlik qozonlarini va dudburunlarini tozalash va texnik ko'rikdan o'tqazish maqsadida tuzilganligi to'g'risida

Shartnoma bahosi 64 068 000 ( Oltmish to'rt million oltmish sakkiz ming) so'mni tashqil qiladi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Sharof Rashidov tuman xalq ta'limi bo`limi tomonidan 29.09.2022 yilda yuridik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etilgan yuqarida qayd etilganlarga asosan,

XULOSA QILDIM:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh maslahatchisi** **K.Saipov**
29.09.2022 yil

Scanned with CamScanner